

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI TUSHUNCHASI, UNING OBEKTLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi IIV Samarqand akademik litseyi

Huquqshunoslik fani o'qituvchisi

Sanaqulov Bahodir Ro'ziyevich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada intellektual mulk tushunchasi, kelib chiqishi, mazmuni va intellektual mulk obektlarining o'ziga xos xususiyatlari, bugungi kunda mamlakatimizda intellektual mulk sohasini rivojlantirishda muallif va boshqa huquq egalari qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni huquqiy asoslari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Intellektual mulk, mualliflik va turdosh huquqlar, jarima, Qaror, Qonun, xuquqbuzar, obyekt, qimmatbaxo qogozlar, ashyolar, foiz, Patent, Sanoat Mulki, JST, Milliy strategiy, BHM, Agentlik.*

Bugungi kunda 26 aprel – Xalqaro intellektual mulk kuni dunyo bo'ylab keng nishonlanmoqda. Intellektual mulk- xar bir davlat uchun innavattsion va iqsodiy o'zishini asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

-Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining alohida o'ziga xos obyekti hisoblanadi. "Intellekt" lotincha so'z bo'lib, "aql" ma'nosini anglatadi.

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining boshqa obyektlari – ashyolar, qimmatbaho qog'ozlardan quyidagi xususiyatlari bo'yicha farq qiladi:

a) ko'p hollarda intellektual mulk obyektlari moddiy ko'rinishda emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi;

b) g'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk obyektiga odatdagi moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas;

d) bunday obyektlardan bir vaqtning o'zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olishi mumkin;

e) intellektual mulk huquqi obyektlariga mulk huquqining muddatsizligi haqidagi qoida (FK 164-m.) qo'llanilmaydi. Binobarin, ko'pchilik hollarda (nou-xauga nisbatan istisnoni hisobga olmaganda) intellektual mulk huquqi amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan bo'ladi;

f) qonunlarda belgilangan muddatlar o'tishi bilan intellektual mulk huquqi sohibining intellektual mulkning muayyan obyektiga nisbatan huquqlari bekor bo'ladi va bu obyektlar umuminsoniy boylikka aylanib, har kim undan ma'lum shartlar asosida (muallifining shaxsiy huquqlariga rioya qilgan holda) tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo'ladi;

g) intellektual mulk huquqi obyektlari g'oya ko'rinishida bo'lgan hollarda ularni ashyolar singari egallash mumkin emasligi, ulardan bir vaqtning o'zida cheksiz

doiradagi shaxslar foydalana olish imkoniyatlari mavjudligi sababli bunday obyektlarga nisbatan mulk huquqini himoya qilisqilishda vindikatsion da'voni qo'llash (FK 228-m.) imkoniyati amalda mavjud emas;

2021 yil 20 avgustda «Intellectual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Unga ko'ra, mualliflik va turdosh huquqlar egalariga BHMning 20 baravaridan 1000 baravarigacha miqdorda tovon pulini talab qilish tartibi joriy qilindi. Shuningdek, mualliflik huquqini muhofaza qilish muddati 50 yildan 70 yilga uzaytirildi. Mazkur qonun qabul qilingandan so'ng Intellectual mulk agentligi mualliflar foydasiga bir milliard so'm tovon puli undirilishiga ko'maklashdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2021 yil 24 sentyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2021 yil 19 noyabrda ma'qullangan 2022 yil 2 fevraldagi O'RQ-749- sonli «Intellectual mulk ob'ektlari to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonunga muvofiq ;

-Intellectual mulk sohasidagi qonunbuzarlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan korporativ javobgarlik belgilash va ularga nisbatan BHMning 100 baravaridan 200 baravarigacha bo'lgan miqdorda moliyaviy jarimalar qo'llash tartibi joriy qilindi.

-Jarima solish uchun asos bo'lgan huquqbuzarlik aniqlanganligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida Agentlik huquqbuzarga nisbatan ushbu Qonun 331 -moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan miqdorlarda jarima solish to'g'risida qaror qabul qiladi.

-Jarima solish to'g'risidagi qaror Agentlikning rahbari (uning o'rnini bosuvchi shaxs) tomonidan imzolanadi va bir ish kuni ichida huquqbuzarga yuboriladi.

-Jarima solish to'g'risidagi qaror yuborilgan kundan e'tiboran bir oy ichida huquqbuzar ushbu qarorda nazarda tutilgan jarima summasini ixtiyoriy ravishda to'lashi mumkin.

-Jarima solish to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan jarima summasi miqdorining etmish foizi huquqbuzar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda, huquqbuzar jarimaning qolgan summasini to'lashdan ozod etiladi. (333-модда)

- Xuquqbuzar tomonidan jarima summasi ixtiyoriy ravishda to'lanmagan taqdirda, Agentlik jarimani undirish to'g'risidagi da'vo arizasini sudga belgilangan tartibda besh ish kuni ichida beradi. (334-модда)

Qonundagi va umuman, bu sohadagi har qanday moliyaviy sanksiyalarning asosiy maqsadi – jarima qo'llash emas, balki halol tadbirkor va ijodkorlarning o'z ijod mahsullaridan to'liq foydalana olishiga sharoit yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumning 23.06.2023 yildagi 19-sonli "Intellectual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida" gi

qaroriga asosan mamlakatimizda intellektual mulk sohasini rivojlantirish, muallif va boshqa huquq egalarining qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Intellektual mulkni rag'batlantirishga doir normalar asosiy qonunimizdan ham o'rin olgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanib, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilishi qat'iy belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumning 23.06.2023 yildagi 19-sonli "Intellektual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida" gi qaroriga asosan Mamlakatimizda intellektual mulk sohasini rivojlantirish, muallif va boshqa huquq egalarining qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Intellektual mulkni rag'batlantirishga doir normalar Asosiy qonunimizdan ham o'rin olgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanib, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuni ta'kidlash joizki, intellektual mulk huquqi dunyo miqyosida kam sonli mamlakatlarning konstitutsiyasida aks ettirilgan bo'lib, kam sonli davlatlarning fuqarolari intellektual mulk huquqini konstitutsion huquqim, deya oladi.

Intellektual mulk ob'ektlari muhofazasini ta'minlash bilan birga ularni samarali himoya qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish va amalga oshirish hamda bu yo'nalishdagi amaliyotni takomillashtirish davr talabidir.

«Butunjahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish to'g'risida»gi konvensiyasi (1967 yil 14 iyul, Stokgolm va 1979 yil 2 oktyabrda o'zgartirilgan; O'zbekiston Respublikasi uchun 1991 yil 25 dekabrda kuchga kirgan);

«Sanoat mulki muhofazasi bo'yicha» Parij konvensiyasi (Parij, 1883 yil 20 mart, Bryussel, 1900 yil 14 dekabr, Vashington, 1911 yil 2 iyun, London, 1934 yil 2 iyun, Lissabon, 1958 yil 31 oktyabr, Stokgolm, 1967 yil 14 iyulda qayta ko'rilgan va 1979 yil 2 oktyabrda o'zgartirilgan. O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyada huquqiy voris sifatida 1991 yil 25 dekabrda ishtirok etadi);

«Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida»gi Bern konvensiyasi (Parij, 1971 yil 24 iyul, 1979 yil 28 sentyabrda o'zgartirish kiritilgan. Mazkur konvensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004 yil 27 avgustdagi 681-P-sonli «Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida»gi Bern konvensiyasiga qo'shilish haqida»gi qaroriga asosan qo'shilgan);

«Patent huquqi to'g'risida»gi shartnoma (2000 yil 1 iyunda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 15 martdagi O'RQ-25-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 1 iyunda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan Patent huquqi to'g'risidagi Shartnomaga qo'shilishi haqida»gi qonuniga asosan qo'shilgan. 2006 yil 19 iyuldan kuchga kirgan);

Intellectual mulk sohasida mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Bu ijodkorlik va novatorlikning turli shakllarini himoya qilish hamda ijodkorlar va tadbirkorlarni rag'batlantiradigan muhit yaratish uchun drayver bo'lib xizmat qilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 fevraldagi «Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–4168-son qaroriga muvofiq intellectual mulkni huquqiy muhofaza qilish va umume'tirof etilgan xalqaro normalarni implementatsiya qilishga oid faoliyati qoniqarsiz deb topilganligi sababli Intellectual mulk agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimiga o'tkazildi.

Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi bu yo'nalishda izchil faoliyat yuritmoqda.

Ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda intellectual mulk sohasining huquqiy tizimini yanada takomillashtirish, intellectual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza va himoya qilishni kuchaytirish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi.

Xususan, 2021-2023 йиллар мобайнида 51 qonunchilik hujjati loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, hozirga qadar shulardan 19 tasi qabul qilingan, 29 tasi Vazirlar Mahkamasi, Prezident Administratsiyasi hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatiga kiritilgan, uchtasi jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilgan.

– 2021 yil 28 yanvarda davlatimiz rahbarining «Intellectual mulk ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, intellectual mulk ob'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatlarini keskin qisqartirish imkoniyatini yaratuvchi ekspertiza faoliyatining tezlashtirilgan tartibi joriy etildi. Tovar belgisining faqat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilishiga nisbatan qonunchilikdagi mavjud cheklovlar bekor qilindi.

Ilk marotaba hududlarda intellectual mulk huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi intellectual mulk markazlari tashkil etildi.

Yaratilgan qulayliklar natijasida ro'yxatdan o'tkazilgan intellectual mulk ob'ektlari soni 2021 yilning o'zida 2020 yilga nisbatan qariyb 40 foizga o'sdi.

Alohida ta'kidlash kerakki, Prezidentimiz qarori bilan O'zbekistonda ilk marotaba 2022-2026 yillarga mo'ljallangan intellectual mulk sohasini rivojlantirishning Milliy strategiyasi qabul qilindi.

Ushbu hujjat tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimiz tarixida ilk marotaba qabul qilindi. Strategiyada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar o'z aksini topgan.

Mazkur huquqiy hujjat oldimizdagi 5 yilga mo'ljallangan intellektual mulk sohasidagi davlat siyosatini belgilab berdi. Unda «Intellektual mulkning samarali huquqiy muhofazasidan – kuchli huquqiy himoyasi sari» tamoyili ilgari surilgan.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) kirishi hozirgi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Shu munosabat bilan milliy qonunchilikni JSTning TRIPS bitimi talablariga muvofiqlashtirish JSTga a'zolikning asosiy shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. O'zbekiston, 2023 - 33 b.
2. Ku'ldashev N. A., Nurullayev U.K. Fuqarolik va oila huquqi. IIV akademik litseylari uchun Darslik - T.: IIV Akademiya, 2023-y. 89-97 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumning 23.06.2023 yildagi 19-sonli "Intellektual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida" gi qarori.